

ISLOMDA BOG‘IYLIK MAVZUSI

*Karshiboyev Shaxzod Xamza o‘g‘li*  
*Guliston davlat universiteti*  
*“ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi*  
[kshaxzod525@gmail.com](mailto:kshaxzod525@gmail.com)  
+998944292397

**Annotatsiya:** Davlat rahbarining o‘rni hoh monarxiya, hoh respublika shaklidagi mamlakat bo‘lsin katta ahamiyatga ega. Rahbarning faoliyatiga nisbatan uning qo‘l ostidagi fuqaro va ushbu mamlakat hududida istiqomat qiluvchi aholi orasida insonga berilgan aql hamda tanlov huquqiga asosan tanqidiymi, maqtovlimi yoki mo‘‘tadil qarashlarga bo‘linadi. Bu qadimdan bo‘lgan va hozirga qadar shundayligicha qolgan.

**Kalit so‘zlar:** bag‘a, xorijiyalar, mu‘tazilalar, al-amru bi-l-ma‘ruf va-n-nahiy ani-l-munkar.

Jamiyatda mavjud har nuqtai nazarlar qatorida din ham, rahbarga bo‘lgan o‘z qarashiga ega bo‘lish haqqi bor. Mavzu kengqamrovli bo‘lganligi va uning atrofida e‘tiborsiz aytilgan har qanday fikr va chaqiriqlar nafaqat tor doiradagi shaxslar, balki butun boshlik jamiyat orasidagi ko‘ngilsiz oqibatlar ni keltirib chiqarishi shubhasiz. Shu nuqtai nazardan uni ochib berishga ko‘proq to‘xtalish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Payg‘ambar Muhammad davrida imomga (rahbar) qarshi chiqish masalasi asl aqidaviy mavzular qatoriga kirmagan bo‘lsa ham, vaqt o‘tishi bilan (tobiinlar davri) e‘tiqodiy muammolar darajasiga ko‘tarildi. Bunga sabab, rahbarga qarshi chiqish natijasida ko‘plab aybsiz insonlarning asossiz qonlari to‘kila boshlanganligida ko‘rish mumkin<sup>1</sup>.

Rahbarga qarshi chiqish ixtilofini xorijiyalar boshlab berishgan bo‘lib, bu ularning zarur aqidaviy qarashlaridan biri sanaladi<sup>2</sup>. Xorijiyalarning fikrlariga ko‘ra, rahbar kishi ularning ko‘rsatmalariga (o‘zlari ishlab chiqqan) asosan insonlar orasidagi nohaqlikka adolat bilan kurash ishini olib borgan shaxs hisoblanadi. Ular bunday imomga qarshi chiqqanlarga nisbatan kurash olib borganlar. Agar ushbu rahbar, tanlab berilgan yo‘lga xilof qilib adolatdan chekinsa, uning o‘zini amalidan ag‘darish yoki o‘ldirish xorijiyalarning e‘tiqodlaridan bo‘lgan.

<sup>1</sup> Bardakorlu A., Uzel A. Hanefi mezhebi // Turkiye Diyanet Vakfi Islam Ansiklopedisi. – Istanbul: 1997. – T. 16. – B. 1-27.

<sup>2</sup> Oqilov S. Abul Mu‘in an-Nasafiy ilmiy merosi va moturidiya ta‘limoti / Monografiya. – T.: Nur poligraf, 2008.

Tabbiyki, xorijiyar hukumatdagi siyosiy maqsadlariga etishish uchun o`zlari talab qilayotgan vositalarda ham bo`linib ketganlar. G`oyaviy bo`linish ular o`rtasidagi kuchli ixtilofga sabab bo`lgan. Bu g`oyaviy-siyosiy ixtilof bo`lishiga qaramay, u dindagi aqidaviy kelishmovchilik ham hisoblanadi. Natijada, ular siyosat bilan dinni qorishtirib, hukm va e`tiqodni aralashtirib tashladilar<sup>3</sup>.

Mu`tazilalar bu borada xorijiyarlardan uzoqqa bormadilar. Ularning etiqodiy tamoyillarining 5-si “al-amru bi-l-ma`ruf va-n-nahiy ani-l-munkar” bo`lib, musulmonlar rahbari adolat sifatiga ega bo`lishligi shart, aks holda xokimiyatdan chetlatish maqsadida unga qarishi chiqish lozim deb bilishadi.

“Ahlu-s-sunna va-l-jamoa” olimlari orasida bu masala borasida birinchilardan so`z ochgan Abu Hanifa bo`ldi. U o`zining “al-Fiqh al-absat” asarida o`z shogirdiga (Abu Mute` al-Balxiy) nasixat qila turib: “Isyonkorlarga qarshi kofirliklari uchun emas, balki isyonkorliklari uchun jang qilganlar. Sen odil toifa va sitamkor hukmdor bilan birga bo`lasan. Isyonkorlar bilan birga bo`lma” deydi. Jumladagi isyonkor iborasini Abu Hanifa بغي (bag`a) so`zi bilan ifodalagan. “Bag`a” iborasi tajovuz qilish, zulm qilish va qonunga hamda imomga qarshi chiqish kabi ma`nolarga ega. Shu ma`nolarni inobatga olib Abu Hanifa risolasida keltirilgan jumlasiga Qur`ondan: “Agar mo`minlardan ikki toifa o`zaro urushib qolsalar, darhol ular o`rtasini isloh etingiz! Bas, agar ulardan biri, ikkinchisining ustiga tajovuzkorlik qilsa, bas, to (tajovuzkor toifa) Allohning amriga qaytgunicha, sizlar tajovuz qilgan (toifa) bilan urushingiz!” (Hujurot, 9) oyatini dalil tariqasida keltiradi. Shuningdek imom jumlasidagi rahbarni adolatli deb emas, balki sitamkor bo`lsa ham deb keltirgan. Bu esa xorijiy va mu`tazilalarga qarama-qarshi fikr. Abdurahmon ibn Nosir ibn al-Barrok, at-Tahoviy jumlasidagi iboralarga birma-bir to`xtab: “... deb bilamiz”, deganda “ahlu-s-sunna va-l-jamoa” nazarda tutilgan. “Qarshi chiqish”, ya`ni qilich va jang bilan qarshi chiqish demak. “Imomlarimiz va ish boshlarimiz”, bu - musulmonlarning rahbarlari va boshliqlari. “Agar zulm qilsalar ham”, ya`ni rahbarlar xalqqa zulm qilsa ham, ularning zulmiga sabr qilish va ular bilan chiroyli munosabatda bo`lish vojibdir. “Ularni duoi bad qilmaymiz”, ya`ni ularga yaxshilik tilab duo qilamiz, demakdir. “Ularga itoat qilishni Alloh taologa itoat qilishdek farz deb bilamiz” jumlasining ma`nosi shuki, rahbarlar yaxshi ishlarga buyurganda, ularni bajarish vojib. Chunki bu ham Allohga itoat qilishning bir ko`rinishidir” deydi<sup>4</sup>.

O`z fikrlarini davom ettirib al-Barrok: “Bu ahlu-s-sunnaning eng katta asosiy qoidalaridan biridir. Bu aqida boshliqlariga nasihat, ularga nisbatan muhabbat, ularning haqqiga ofiyat, yaxshilik va to`g`rilikni tilab duo qilish va xalqning huquqiga

<sup>3</sup> Kavakci Yusuf Ziya. XII ve XIII asirlarda Karahaniylar davrinde Mavara` al-Nahr Islam Nukukcilari. – Ankara: 1976. - 322 b.

<sup>4</sup> Bag`dodiy Abu Mansur ibn Zohir. Kitobu al-farq bayna-l-firaq / Muhammad Badr nashrga tayyorlagan. - Qohira: 1328/1910. – 452 b.

rioya qilishda Allohdan ularga tavfiq so`rash demakdir. Shuningdek, bu aqidada ummat uchun mukammal nasihat ham bor. U ham bo`lsa, boshliqlarga zulm yoki ma`siyat tufayli qilich ko`tarib qarshi chiqmaslikdir. Mu`taziliylar esa bu qoidada ahlu-s-sunnaga xilofdirlar. Mu`taziliylarning “yaxshilikka buyurish va yomonlikdan qaytarish” nomli asosiy qoidasi bor. Bu qoidaga ko`ra, mu`taziliylar zolim boshliqlarga qarshi chiqishni vojib sanashadi va buni amri ma`ruf va nahy munkarning bir ko`rinishi, deb izohlashadi. Aslida esa bu aqida Rasulullohdan rivoyat qilingan sahih dalillarga va ahlu-s-sunnaning e`tiqodiga xilofdir” deydi<sup>5</sup>.

Al-Barrok risoladagi bu jumalarning sharhini hozirgi kunga bog`lab: “Bugunda dunyoviy islohotlarni amalga oshirish shiori ostida rahbarlar bilan hokimiyat talashish maqsadida davlat boshiga qarshi chiqish ko`p kuzatilmoqda. Buning natijasida insonlar doimiy mashaqqat va yomon turmush sharoitida yashashga majbur bo`lishmoqda, nohaq qonlar to`kilmoqda, obro`-e`tibor tushmoqda, mol-mulklar isrof bo`lib, buzg`unchiliklar keng avj olmoqda. Xususan, buyruqqa bo`ysinmaslik holatlari kuzatilganda, musibat doirasi yanada kengaymoqda, jinoyatchilarga jinoyatni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratilmoqda” deydi.

Doktor Solih ibn Favzan at-Tahoviyning jumalalarini sharh qilib avvalroq keltirilgan olimlar fikrlarini tasdiqlab boshqa nuqtaga urg`u berar ekan: “Boshliqlar garchi fosiq bo`lishsa ham, ularga qarshi chiqmaslik lozim. Chunki unga bay`at berilgan va hokimiyat qo`liga topshirilgan. Boshliqlarga ularning fosiqligi sababli qarshi chiqish katta musibat va buzg`unchilik bo`lib, odamlarning tafriqaga ajralishiga, fikrlarning bir-biriga to`g`ri kelmay qolishiga, tinchlikning yo`qolishiga sabab bo`ladi” deb Payg`ambardan kelgan: “Tinglanglar va itoat qilinglar. Faqat ochiq-oydin kufri ko`rsangiz va bunga aniq hujjat bo`lsagina (itaot qilmasliklaringiz mumkin)” (Buxoriy, 7056) hadisni dalil qilib keltiradi. O`z fikrlarini davom ettirar ekan doktor Solih ibn Favzan bahslarga sabab bo`lgan olim Ibn Taymiyaning: “Qaysi qavm o`z rahbariga qarshi chiqsa, shubhasiz, unga qarshi chiqilgandan keyingi holati bosh ko`tarishidan oldingi vazitidan yomonroq bo`ladi” degan so`zlarini keltiradi<sup>6</sup>.

Risolada kelgan “agar zulm qilsalar ham” degan iboralarni sharhlab doktor Solih ibn Favzan: “Agar rahbarlar xalqning molini olish, belga urish yoki musulmonni o`ldirish kabi ishlar bilan zulm qilsalar ham ularga qarshi chiqish joiz emas. Chunki Rasulullohdan: “Molingni olsa ham, belingga ursa ham, eshitgin va itoat et” (Muslim, 4785) degan hadis kelgan. Ularning zulmiga sabr qilish qarshi chiqishdan afzalroqdir. Chunki boshliqlarga qarshi chiqishning zarari ko`pdir. Ahlu-s-sunna bu ikki zararli ishning kattasini kichigi bilan daf qilish qoidasi asosidan kelib chiqqan” deydi<sup>7</sup>.

<sup>5</sup> Bursaviy Muhammad Zohid Kutku ibn Ibrohim. Ahli sunna va al-jamo`a Aqoidi / tarj. M. Kenjabek. – T.: Sharq, 1998. – 144 b.

<sup>6</sup> Mansurov A. Aqid matnlari. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyat matbaa birlashmasi, 2006. – 56 b.

<sup>7</sup> Imomi Tahoviy. Aqid / Abdulaziz Mansur tarjimasi. - T.: Meros, 1992. – 56 b.

Doktor Solih ibn Favzan “ularni duoi bad qilmaymiz” degan jumlagga izoh berib: “Rahbarlarni duoi bad qilish joiz emas. Chunki duoi bad ma’naviy qarshi chiqish demakdir. Ularni duoi bad qilish qilich bilan qarshi chiqishga barobardir. Ba’zi insonlar boshliqlarni duoi bad qilganida “bu Alloh yo`lida g`azab va g`ayrat qilish”, deb o`zlarini oqlashag harakat qilishadi. Aslida esa, bu noo`rin g`azab qilish sanaladi. Chunki bu tarzda g`azab qilish buzg`unchiliklarga sabab bo`ladi. Imom Ahmad “mihna” fitnasida qattiq azaoblangan. Lekin rahbarlarni duoi bad qilgani yoki ular haqida nojo`ya so`zlar aytgani haqida hech bir xabar yo`q. Balki Imom sabr qildi va natijada yaxshi oqibatga erishdi. Bu ahlu-s-sunaning mazhabidir. Ba`zilar juma xutbalarida voliylarga atab xutba o`qishni inkor qilishadi va buni tilyog`lamalik, munofiqlik va laganbardorlik deb bilishadi. Aksincha rahbarlarning haqiga yaxshi duo qilish sunnatdir” deydi.

Yuqorida keltirilgan zamonaviy olimlarning qarashlarini uzviy davomi sifatida doktor Solih ibn Abudlaziz Ol ash-Shayx davom ettirib at-Tahoviyning risolasidagi rahbarlar haqidagi jumlaning o`zidan oldin sharhlargan ulamolar fikrlariga qo`shilgan holda batafsil ravishda 8 ta masalaga bo`lib chiqib izohlagan. Xusasan, olim birinchi masalada “imom” va “ishboshi” so`zlarining Qur`on va sunnatdan dalillar keltirib, ularni bu manbalarda qo`llanilishi hamda iboralarga xos bo`lgan sifatlarni tariflaydi.

Ikkinchi masalada, rahbarda mujassam bo`lishi lozim ikki shartni: birinchisi, omma insonlarning diniy va dunyoviy ishlarini boshqarishda, ularni birlashtirib, dushmanlardan himoya qilishda chiroyli yo`l tutmog`i kerakligi va ikkinchisi, o`ziga munosib bo`lgan darajada shar`iy hukmlarni bilishligi hamda fiqh kitoblaridagi barcha mavzularni o`zlashtirish shart emasligini bayon qilib beradi.

Uchinchi masalada, rahbarlar va mansabdor shaxslarga qarshi chiqishni joiz sanaydigan insonlar xorijiyalar va mu`tazilalar kabi islom ummatidan bo`lgan, lekin adashgan oqimlarning yo`lini tutgan bo`ladi deb baho beradi.

To`rtinchi masalada, “at-Tahoviy keltirgan bu jumlar Qur`on va sunna dalolat qilgan asosiy aqida sanaladi” deb, qator oyat va hadislarni keltirib o`tadi.

Beshinchi masalada, rahbarga qarshi chiqish turlarini sanab o`tib: birinchisi e`tiqodiy, ya`ni bay`at qilmaslik, unga qarshi chiqish vojib, deb bilish yoki unga qarshi chiqishga imkoniyat yaratish va xayrxohlik bildirish bo`lsa, ikkinchisi amaliy – bu odamlarni qurol bilan boshliqqa qarshi chiqishi, ishboshini bo`shatish va o`zgartirish maqsadida bir joyga yig`ilishi yoki uni o`ldirish uchun fitna qo`zg`atishi kabi holatlarni keltiradi.

Oltinchi masalada, rahbarlarga qarshi chiqishning bir nechta sabablari mavjudligini ko`rsatib ularga, bosh ko`targanni o`zining ta`vili va ijtihodi borligi bo`lsa, yana biri kishi o`zida, shahrida yoki jamiyatda dini yoki dunyosi uchun ko`ngilsiz va nojo`ya bo`lgan ishlarni ko`rishida deb aytib o`tadi.

Yettinchi masalada, rahbarlarga itoat Alloh va Uning Rasuliga itoat demakligini ko`rsatib turib ularning boshqaruvdagi tasarruflari bir necha ko`rinishda bo`lishligini: birinchisi, rahbarlar gohida Allohga itoat qilishga buyuradilar va bunda ularga itoat qilish lozim; ikkinchisi, rahbarlar o`z ijtihodlari (ularga berilgan huquqqa asosan qonunlar) bilan davlat hamda jamiyatni boshqarishda kerak bo`lgan buyruqlarni beradilar va bunda ham itoat qilish kerak; uchinchidan rahbarlar ba`zida Allohga osiy bo`lishga va gunoh ishlarga buyurishlari mumkin va bunday holatda unga qarshi chiqmasdan, buyurilgan gunoh ishni bajarishdan bosh tortish mumkinligi borasidagi qarashlarga to`xtaladi.

Sakkizinchi masalada, “garchi zulm qilsalar ham”, degan jumlagi izoh berib, rahbarga itoat qilishda uning odil, taqvodor yoki shariat ilmlarining barcha sohalarini to`liq egallagan olim bo`lishi shart emasligi, balki, zolim bo`lsa ham, unga itoat etish vojibligi, boshliqlarni din ishlarida zulm qilishi va dunyo ishlarida zulm qilishi mumkinligini ta`kidlab o`tadi.

Doktor Solih ibn Abudlaziz Ol ash-Shayx yuqorida keltirilgan sharhlarda izohi berilmagan, at-Tahoviyning “Ularga itoat qilishdan qo`lni tortib olmaymiz” degan jumlasiga: “Imom at-Tahoviy bu so`zlar orqali ahlu-s-sunnaning rahbarga itoat etishdan bosh tortmasligini anglatmoqda. Imom at-Tahoviy matnda “qo`l” so`zini ishlatgan. Chunki qo`l bay`at uchun kerak bo`ladigan asosiy vositadir. Zero, bay`at bir-birining qo`llarini ushlab orqali amalga oshiriladi. Bu saylash huquqiga ega bo`lgan shaxslarning qo`lni-qo`lga berib bay`at qilishini anglatadi. Insonlarning bir-biriga bay`at berishi ahlu hil va aqd (saylov huquqiga ega shaxs)larning o`zaro bay`at qilishlari yoki ba`zi mo`minlarning rahbarga bay`at qilishlari bilan amalga oshadi. Qo`l bilan bay`at berilgandan so`ng ahddan qaytilmaydi. Chunki ahddan qaytish xorijiyatlarning alomati” deb ta`riflaydi.

Shuningdek doktor Ol ash-Shayx “Ularning haqlariga salohiyat va avf so`rab duo qilamiz” jumlasini: “Salafu-s-solihlar va islom dinining ulug` imomlari aqidasi ko`ra, biz, ya`ni “ahlu-s-sunna va-l-jamoa” a`zolari rahbarlarni duoi bad qilmaymiz, shu bilan birga jim ham turmaymiz, balki ularning haqqiga salohiyat va avf tilab duo qilamiz. Shubhasiz, rahbarga salohiyat tilab duo qilish ummat uchun duo qilish demakdir. Chunki rahbar yaxshi bo`lsa, xalq ham yaxshi bo`ladi. Avf – bu Allohdan rahbarni musibat va sinovlardan hamda xalqni boshqarishda xatoga yo`l qo`yishidan saqlashini so`rashdir” deb sharhlaydi.

Bu mavzuga xulosa yasalar ekan, xozirgi kunda umumjahon globalizasiya davrida, dunyoning turli burchaklarida davlat rahbarlariga qarshi chiqish natijasida nohaq qonlarni to`kilishi, shaharlarning qulashi, gullab-yashnash, iqtisod va rivojlanishning to`xtab, o`n yillarga ortda qolayotgan bir davrda mavjud tinchlikni saqlab qolib uni qadrlash qahramonlikka teng bo`lib qolmoqda. Albatta, tinchlik holatini jamiyatda saqlab qolib, uning qadriga etishda, musulmonlar rahbarlariga qanday



munosabatda bo`lishlikni at-Tahoviy risolasida kelgan jumalardan o`rganib, hayotga tatbiq qilish uncha ham katta mehnat talab qilmaydi.

**Adabiyotlar ro`xati:**

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Oqilov S. Kalom ilmi. O`quv qo`llanma. –Toshkent: TIU nashriyoti, 2011. – 160 b.
2. Sunniylik ta`limoti. O`quv qo`llanma. (hammualliflikda: S.Oqilov, S.Primov, A.G`iyosov). – Toshkent: TIU nashriyoti, 2012. – 123 b.

**Qo`shimcha:**

3. Oqilov S. Abul Mu`in an-Nasafiy ilmiy merosi va moturidiya ta`limoti / Monografiya. – T.: Nur poligraf, 2008. – 190 b.
4. Mansurov A. Aqoid matnlari. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot matbaa birlashmasi, 2006. – 56 b.
5. Ziyodov Sh. Abu Mansur al-Moturidiy // Al-Moturidiy ta`limoti va uning X-XIII asrlarda Movarounnahr madaniyatida tutgan o`rni: Leksiyalar to`plami. – T.: O`zFA ShI, 1999. – B. 56-60.
6. Imomi Tahoviy. Aqoid / Abdulaziz Mansur tarjimasi. - T.: Meros, 1992. – 56 b.
7. Al-Moturidiy ta`limoti va uning X-XII asrlarda Movarounnahr madaniyatida tutgan o`rni. Leksiyalar to`plami / Mas`ul muharrir: M. Xayrullaev. - T.: 1999. – 106 b.
8. Oqilov S. Abul Mu`in an-Nasafiy moturidiya ta`limotining davomchisi // TIU ilmiy tahliliy axboroti. – 2004. - № 1. – B. 13-19.
9. Mo`minov A. Hanafiy ulamolarning Markaziy Movarounnahr shaharlari hayotida tutgan o`rni va roli: Tar. fan. dok. dis... avtoref. - T.: TIU, 2003. – 46 b.
10. Muminov A. Razrabotka polojeniy xanafitskogo mazxaba v Maverannaxre // Kratkoe soderjanie dokladov Lavrovskix (Sredneaziatsko-kavkazskix) chteniy. - Sankt-Peterburg: 1992. - B. 87-88.
11. Petrushevskiy I. P. Islam v Irane v VIII-XB vekax. - L.: Izdatelstvo Leningradskogo Universiteta, 1966. – 400 b.
12. Abul Mu`in an-Nasafiy. Bahrul kalom. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 2005. – 213 b.
13. Abu Azba Hasan ibn Abdulmuhsin. Ar-Ravdatu-l-bahiya fima bayna-l-ashaira va-l-moturidiya / Ali Farid Dahruj nashrga tayyorlagan. - Bayrut: Dor sabiyli-l-irshod, 1996. – 204 b.
14. Allard M. Le problème des attributs divins dans la doctrine d'al-Ar'aro et de ses premiers grands disciples. – Beyrut: 1965. – 632 b.

15. Ash'ariy Abu Hasan Ali ibn Ismoil. Al-ibona an usul ad-diyana / F. Mahmud nashrga tayyorlagan. - Qohira: 1977. – 362 b.
16. Ahmad ibn Abdilloh ibn Doxil al-Lohibiy al-Hazbiy. Al-Moturidiya: dirosatan va taqvkman. - Ar-Riyod: Doru-l-Asima, 1413. – 576 b.
17. Bag`dodiy Abu Mansur ibn Zohir. Kitobu al-farq bayna-l-firaq / Muhammad Badr nashrga tayyorlagan. - Qohira: 1328/1910. – 452 b.
18. Bursaviy Muhammad Zohid Kutku ibn Ibrohim. Ahli sunna va al-jamo`a Aqoidi / tarj. M. Kenjabek. – T.: Sharq, 1998. – 144 b.
19. Baxadirov R. Iz istorii klassifikasii nauk na srednevekovom musulmanskom Vostoke. - T.: Akademiya, 2000. – 241 b.
20. Bardakorlu A., Uzel A. Hanefi mezhebi // Turkie Diyanet Vakfi Islam Ansiklopedisi. – Istanbul: 1997. – T. 16. – B. 1-27.
21. Brunschvig R. Devoir et pouvoir, histoire d'un probleme de theologie musulmane. – T. I. – Paris: 1976. – 279 b.
22. Kavakci Yusuf Ziya. XII ve XIII asirlarda Karahaniylar davrinde Mavara' al-Nahr Islam Nukukcilari. – Ankara: 1976. -322 b.
23. Madelung W. The Spread of Mvturidism and the Turks // Actas IV congresso de Estudos Arabes Islvmicos. coimbra-Lisboa. 1 a 8 de Setembro de 1968. – Leiden: Brill, 1971. – B. 109-168.
24. Moturidiy Abu Mansur. Kitob at-tavhid / Fathulloh Xulayf nashrga tayyorlagan. – Istanbul: al-Maktaba al-islomiya, 1979. – 408 b.
25. Nasafiy Abul Mu'in Maymun ibn Muhammad. Tabsirat al-adilla fi usul ad-din. 2 jildli. K. Saloma nashrga tayyorlagan. – Damashq: 1990-1993. -1011 b.